

MAKTABGACHA TA`LIM JARAYONINI TASHKIL QILISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

ERGASHEVA ZAMIRA JIZBOYEVNA

Samarqand viloyati Paxtachi tumani 40-maktab psixologi

Annotasiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta`lim jarayonini tashkil etishning muammo va yechimlar to`g`risida to`xtalib o`tilgan. Maktabgacha ta`limni rivojlantirishda o`yinlarning ahamiyatini yoritib bergan.

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo`lib, ajdodlarimiz ma`rifat, ma`naviyat va ma`daniyatni qanday qilib yosh avlod- da o`rganish, ularni komillikka yetaklash yo`llari, qonun-qoidalarini doimo izlaganlar. Bugungi kunda Maktabgacha ta`lim muassasalarida juda ko`p islohatlar o`tkazilmoqda. Bularning barchasi bolalar va pedagoglarning manfaatlari yo`lida xizmat qilishiga shuningdek Maktabgacha ta`lim sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Avvalo maktabgacha ta`limning vazifalarini bilib olsak, Maktabgacha ta`limning vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolalarni xalqimizning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma`naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash;
- bolalarda milliy g`urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;
- maktabgacha yoshidagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o`qishga intilish maylini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta`lim jarayoniga tayorlash;
- bolalarni tafakkurini rivojlantirish, o`zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakasini shakllantirish;
- bolalarning jismoniy va ruhiy sog`lig`ini ta`minlash.

Maktabgacha ta`lim turlari ota-onalar tomonidan tanlanadi. O`rta osiyo madaniyati tarixiga nazar solsak, farzand tarbiyasiga juda katta e`tibor qaratilgan. Mashhur allomalardan Abu Nasr farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiylar o`z asarlarida xalqimizga xos bo`lgan farzand tarbiyasi ustida fikr yuritganlar. Xalq pedagogikasini o`rganish davomida olimlarning farzand ta`lim-tarbiyasi va odob axloqqa oid asarlarida, bolalarni tarbiyalashda tarbiyaviy ishning eng ta`sirchan uslubi-o`yin shaklidan juda keng foydalanganligini ko`ramiz. O`yin jarayonida bolaning psixik bilish jarayoni, irodasi, hissiyoti, ehtiyoji va qiziqishlari, ta`sirchanligi-uning butun shaxsiyati shakllanadi. Bola o`yinda o`zining bevosita ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqadi. Bolalarning o`yinlari o`zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ijodiy o`yinlar, didaktik o`yinlar, milliy xalq o`yinlari shular jumlasidandir. Bilim olish jarayonini o`yinlar

orqali rivojlantirish yotadi. Bolalarda ilm olish ijod ijtimoiy yo`nalish kabi tushunchalar rivojlanadi, sog`lom hayot tarsi tarbiyalanadi va ular ijtimoiy muhitda o`zlarini qanday tutish kerakligini tushuna boshlaydilar. Intelektual-psixologik o`yinlar bolani har tomonlama komil shaxs bo`lib shakllanishida asosiy vositadir. Maktabgacha ta`lim davridagi bolani har tomonlama komil inson shakllanishida didaktik o`yinlar asosiy vosita bo`lib hisoblanadi. Intellektual-psixologik o`yinlarning barchasini quyidagi 3 asosiy turga ajratish mumkin.

1. Buyumli o`yinlar (o`yinchoqlar, tabiiy materiallar).
2. Stol ustida o`ynaladigan o`yinlar.
3. So`z o`yinlari.

Masalan: "Kim ko`p biladi?" o`yin turi. Didaktik maqsad. Bolalar xotirasini rivojlantirish. Ularga narsalar to`g`risida tushuncha berib bilimlarini boyitish. "Ajoyib o`zgarishlar" o`yini didaktik maqsad. Bolaning tasavvur va ijodiy xayolini rivojlantirish, timsolli xotirani tarbiyalash, mustaqil ishlash malakasini shakllantirish. "Farqini top" o`yini didaktik maqsad: bolalarning barqaror diqqatini rivojlantirish, kuzatuvchanlikni o`stirish... Pedagog ota-ona pedagogic tarkib bolaning o`zi va albatta jamiyat hamda davlat kabi ijtimoiy hamkorlik bilan bir ijtimoiy muhitni tashkil qiladi.

Qadimda bugungi texnika asri bol`lmasa-da buyuk tarixiy shaxslar, sarkardalar, tabiblar yetishib chiqqan chunki ular zamonda yashayotgan insonlarning dardi nima ekanligini chin yurakdan his etgan. Ko`zi bilan ko`rib unga chora izlagan. Bugungi kunda farzandlarimiz qiynalmasligi, bilim olishi, kelajagi yaxshi bo`lishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berganmiz. Ammo ularga hayotning boshqatarafli hamkorligini hamma ham birdek yaxshi yashayotganligini buning sabablarini ham bolalarga tushuntirishimiz kerak deb o`ylayman.

1. Bolani tarixiy obidalarga olib borsa:
2. Ziyoratgohlarga borib yaxshi va yomonlik haqida yaxshi insonlar xalq qalbida mangu yashashi;
3. San`at muzeyida bola qalbida go`zal xulq va odoblarini shakllantirish;
4. Bemor va nochor insonlar ziyoratiga borib bola qalbida kelajakdagi orzu va rejalarga zamin yaratiladi. Bolalarning yoshgina yuragida barcha kasalliklarga va nochorlarga yordam berish fikri tug`iladi.

Xulosa qilib aytganda, O`zbekiston mustaqillikka erishgach, barcha sohalar Qatorida ta`lim-tarbiya sohasida ham tub ijobiy o`zgarishlar yuz berdi. Bugungi bolakay va qizaloqlar zimmasida XXI asrda sog`lom, bilimli, aqlli bo`lib, jamiyatimizning faol a`zolariga aylanishdek ulkan vazifa turibdi. Bunga esa ular siz-u bizga-kattalarga umid, ishonch nigohi bilan boqadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogik psixologiya.I.Ibragimov.U.Yo`ldoshev.X.Bobomirzayev. Toshkent 2007y.
2. Pedagogik psixologiya asoslari.E.V.G`oziyev.T.To`laganova.Toshkent.1997y.
3. Z.T.Nishonova.Z.Qurbonova.S.Abdiyev.Sh.To`laganova”Psixodiagnostika”.Toshkent.2008y.

